# YASHIL
## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№4



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2025

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 319 sahifa.*
*E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Viktorovna,** Candidate of Economic Sciences (Moscow)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников ... 18
**Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович**
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari ... 26
**To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li**
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review ... 32
**Ismoilova Maftuna Mamat qizi**
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari ... 38
**Primova Shaxlo Jumayevna**
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash ... 43
**Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi**
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish ... 52
**Qodirova Zilola Maxmud qizi**
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi ... 57
**Erkayev Nodir Xudayberdiyevich**
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari ... 71
**Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi**
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution ... 76
**Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar ... 89
**Tilabova Kumush Farhod qizi**
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish ... 95
**Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich**
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish" ... 101
**Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.**
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan ... 105
**Toyirova Hamida Umedovna**
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli ... 114
**Shakhlo Davirova**
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi ... 120
**Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek**
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari ... 125
**Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi**
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri ... 133
**Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li**
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security ... 138
**Mamayusuf Abdusamatov**
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari ... 143
**Ataniyazov Jasurbek Xamidovich**
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров ... 150
**Ахмедходжаев Равшан Темурович**
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish ... 157
**Safarov Alisher Ibrohim o'g'li**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi ........ 163
**Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi**

Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari ........ 167
**Mirdjalilova Dildora Shuxratovna**

Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innavatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari ........ 173
**Ulmasova Oygul Baxtiyorovna**

Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом ........ 178
**Бердиева Дилфуза Ахатовна**

Improving long-term assets accounting and auditing ........ 184
**Gulboy Yusupov**

Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli ........ 189
**Bozorov Alisher Ro'zimurodovich**

Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar ........ 193
**Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur**

Bank aksiyalarining bozordagi narx dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar ........ 200
**Nomozov Samandar Shuxrat o'g'li**

Sanoatda rivojlanish kafolati: moliyaviy boshqaruvni raqamli transformatsiya orqali avtomatlashtirish ........ 206
**To'qliyev Abdirauf Bahodir o'g'li**

Inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi, aholi daromadlariga ta'siri ........ 214
**Bozorova Saxobat Abdujapparovna**

Анализ конкурентной среды: методология, примеры и этапы процесса ........ 219
**Садикова Раъно Абдуллаевна**

Tijorat banklarida muammoli kreditlarning nazariy asoslari va ular bilan ishlash mexanizmining zaruriyati ........ 225
**Salixova G.J**

Iqtisodiyotda energiya xavfsizligiga erishishning xorij tajribasi ........ 230
**Samandarov Og'abek Alisher o'g'li**

Measuring methodologies of influence of the esg factors ........ 235
**Tolipova Feruza Alisherovna**

Совершенствование налогового администрирования в условиях экологически устойчивого развития ........ 240
**Омонов Отажон Журакулович**

Moliyaviy vositalar asosida erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish ........ 249
**Quziev Ravshan Ramazanovich**

Методологические аспекты внедрения управленческого учета в университетах Узбекистана ........ 253
**Каршиева Мохинур Олим кизи**

Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish (tibbiyot muassasalari misolida) ........ 257
**Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich**

Умные города как фактор экономического развития ........ 261
**Нозима Кахрамоновна Хакбердиева**

Перспективы зеленого фактора экономического роста в Республики Узбекистан ........ 266
**Исламова Насиба Улугбек кизи, Абдурашидов Отабек Улугбекович, Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна**

Qurilish korxonalarida sifat menejmentini joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish ........ 270
**Ergashev O'tkir, Saidov Mash'al Samadovich**

Xorazm viloyatida eksportni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar va ularni baholash ........ 275
**Fozil Xolmurotov**

Maishiy xizmatlar sohasini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy jihatlari ........ 282
**Quliyev Begimqul Melikovich**

O'zbekiston hududlarida chakana kreditlashning o'sishi........................................................................................ 289
**Eshqobulova Charos O'roq qizi**
Empowering uzbekistan's grain enterprises: innovative strategies for sustainable growth and operational efficiency........................................................................................................................................ 292
**Kurbanova Dildora Abdurakhmanovna**
Kapital investitsiyalarga doir axborotlarni xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish ........................................................................................................................ 298
**Boronov Bobur Farxodovich, Muxammadiev Zarrux Umarovich**
To'qimachilik korxonalarining yashil iqtisodiyotga o'tishi va yengil sanoat korxonalarini muqobil energiyadan samarali foydalanish yo'llari ........................................................................................ 303
**Xolbekova Feruzaxon Rasulovna, Jalolova Aziza Jalol qizi**
Research on the effects of interest rate, inflation rate and gross domestic product (GDP) on the level of foreign direct investment (FDI) inflows (evidence from Uzbekistan)................................... 307
**Azimov Shakhzod**
Organik mahsulotlar eksportini rag'batlantirishda maqsadli bozorlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalari.......................................................................................................................................... 314
**Xidirov Shohrux Bobir o'g'li**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS



# ORGANIK MAHSULOTLAR EKSPORTINI RAG‘BATLANTIRISHDA MAQSADLI BOZORLARGA YO‘NALTIRILGAN MARKETING STRATEGIYALARI

**Xidirov Shohrux Bobir o‘g‘li**
O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi davlat muassasasi xodimi

Annotatsiya: Mazkur maqolada organik mahsulotlar eksportini rag‘batlantirishda maqsadli bozorlarga yo‘naltirilgan marketing strategiyalarining ahamiyati va samaradorligi tahlil etilgan. Jahon bozorida organik mahsulotlarga bo‘lgan talabning izchil oshib borayotgani, O‘zbekistonning ushbu sohadagi eksport salohiyati hamda mavjud holati chuqur o‘rganilgan. Maqsadli bozorlarni tanlash mezonlari, iste’molchi ehtiyojlarini aniqlash, raqobat muhiti va bozor xususiyatlariga mos marketing strategiyalarini ishlab chiqish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, xalqaro standartlar va sertifikatlash jarayonlarining eksport faoliyatiga ta’siri ham atroflicha yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida maqsadli bozorlarga kirish va ularda raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: organik mahsulotlar, eksport, marketing strategiyasi, bozor tahlili, xalqaro standartlar, raqobatbardoshlik, sertifikatlash.

Abstract: This article analyzes the importance and effectiveness of target market-oriented marketing strategies in promoting the export of organic products. It explores the growing global demand for organic products, Uzbekistan’s export potential, and the current state of the sector. Special attention is given to the criteria for selecting target markets, studying consumer demand, the competitive environment, and developing marketing strategies adapted to specific market conditions. The impact of international standards and certification processes on export activities is also discussed. Based on the research findings, practical recommendations are proposed to enter target markets and enhance competitiveness.

Key words: organic products, export, marketing strategy, market analysis, international standards, competitiveness, certification.

Аннотация: В данной статье проанализированы значение и эффективность маркетинговых стратегий, ориентированных на целевые рынки, в стимулировании экспорта органической продукции. Изучены растущий спрос на органические продукты на мировом рынке, экспортный потенциал Узбекистана и текущая ситуация в данной сфере. Особое внимание уделено критериям выбора целевых рынков, изучению потребительского спроса, конкурентной среде и разработке маркетинговых стратегий, адаптированных к условиям конкретных рынков. Также освещено влияние международных стандартов и процессов сертификации на экспортную деятельность. На основе результатов исследования разработаны практические предложения по выходу на целевые рынки и обеспечению конкурентоспособности.

Ключевые слова: органическая продукция, экспорт, маркетинговая стратегия, анализ рынка, международные стандарты, конкурентоспособность, сертификация.

## KIRISH

Bugungi kunda global bozorda organik mahsulotlarga bo‘lgan talab ortib borayotgan bir vaqtda, har bir davlat va mintaqaviy ittifoqlar mahsulotlarni import qilish nuqtayi nazaridan o‘ziga xos va qat’iy standartlarga ega ekani alohida e’tiborga loyiqdir. Turli mamlakatlar import tartib-qoidalari hamda sifat talablaridagi tafovutlar eksport qiluvchi mamlakatlar uchun muayyan murakkabliklarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, mahsulotlar

eksportini raqobatbardosh darajada oshirish uchun aniq yoʻnaltirilgan va maqsadli marketing strategiyalarini ishlab chiqish zarurati tobora kuchaymoqda.

Bundan tashqari, global bozor tendensiyalarining yana bir muhim jihati — plastik qadoqlash vositalaridan voz kechib, tabiiy va ekologik xavfsiz qadoqlash tizimlariga oʻtish jarayonidir. Ushbu oʻzgarish faqatgina atrof-muhitni muhofaza qilish nuqtayi nazaridan emas, balki mahsulotga nisbatan isteʼmolchilar ishonchini oshirish va ularning tanloviga ijobiy taʼsir koʻrsatish jihatidan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekistonning 2030-yilgacha moʻljallangan strategiyasi doirasida eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan keng koʻlamli chora-tadbirlar aynan ushbu global oʻzgarishlar bilan uygʻunlashgan. Strategiyada eksport hajmini 2 barobarga oshirib, uni 45 milliard AQSh dollariga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga koʻpaytirish rejalashtirilgan. Shuningdek, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushini 3,3 barobarga oshirish boʻyicha maqsadlar belgilangan.[1]

Mazkur tadqiqotda yuqorida qayd etilgan strategik koʻrsatkichlar asosida, organik mahsulotlar eksportini ragʻbatlantirishda maqsadli bozorlarga yoʻnaltirilgan marketing strategiyalarining dolzarbligi va ularning samaradorligi chuqur tahlil qilinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kotler va Keller oʻzlarining "Marketing menejment" nomli asarida marketingning nazariy asoslari, bozor segmentatsiyasi, maqsadli auditoriyani aniqlash va mahsulotni pozitsiyalash strategiyalarini chuqur tahlil qilgan. Asarda xalqaro savdoda muvaffaqiyatga erishish uchun innovatsion marketing yondashuvlari va strategik rejalashtirishning ahamiyati keng yoritilgan boʻlib, bu organik mahsulotlar eksporti strategiyasini shakllantirishda muhim nazariy poydevor hisoblanadi.

Maykl Ye. Porterning "Raqobat ustunligi" asarida kompaniyalar uchun raqobatbardosh ustunlik yaratish, strategik tanlovlar va bozor segmentlariga yoʻnaltirilgan yondashuvlar tahlil qilinadi. Muallif eksport salohiyatini oshirish va raqobatbardoshlikni taʼminlashda ichki va tashqi omillarni hisobga olish zarurligini asoslab, nazariy modellar va amaliy misollar orqali muvaffaqiyatli strategiyalarni ifodalaydi.

BMT Oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi tashkilotining (FAO) "Organik oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi" boʻyicha 2020-yilgi "Trendlar va istiqbollar" nomli hisobotida global organik mahsulotlar bozoridagi oʻsish dinamikasi, mahsulotlarga boʻlgan talab hamda import-eksport standartlari statistik tahlil asosida yoritilgan. Hisobotda har bir hududda isteʼmolchilarning talabi va sifat mezonlarining farqliligi, shuningdek, eksportni ragʻbatlantirishda innovatsion yondashuvlarning roli alohida taʼkidlangan.

Yevropa Komissiyasining "EU Organic Certification" tizimi doirasida chop etilgan 2018-yilgi "Yoʻriqnomalar va eng yaxshi amaliyotlar" nashrida Yevropa Ittifoqi bozoriga eksport qilishda qoʻllaniladigan GSP+ tizimi, xalqaro sertifikatlash standartlari, mahsulot sifati va tayyor hamda yarim tayyor mahsulotlar eksporti boʻyicha strategiyalar yoritilgan. Unda eksport salohiyatini oshirish, sifatni kafolatlash va xalqaro savdo imtiyozlaridan samarali foydalanish boʻyicha amaliy tavsiyalar berilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqola tayyorlash jarayonida maʼlumotlarni jadvallar asosida tahlil qilish, ularni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda ekspert baholash usullaridan samarali foydalanildi. Ushbu metodlar orqali organik mahsulotlar eksportiga doir mavjud holatning chuqur tahlili va muhim xulosalar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Soʻnggi yillarda organik mahsulotlarning jahon bozoridagi aylanmasi sezilarli darajada oshdi. Turli manbalarga koʻra, 2023-yilda global organik oziq-ovqat bozori hajmi 170 milliarddan 231 milliard AQSh dollarigacha baholangan. Mazkur bozorning 2024–2030-yillar davomida yillik oʻrtacha 11 foizdan 13,9 foizgacha oʻsish surʼatini namoyon etishi kutilmoqda.

Aholi sonining tez surʼatlarda oʻsishi va urbanizatsiya darajasining yuqoriligi qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlariga boʻlgan global talabni oshirib, umuman olganda, oziq-ovqatga boʻlgan ehtiyojning kuchayishiga olib kelmoqda.[2]

Shuningdek, meva bozorining import hajmi 2025-yilda 122,4 milliard AQSh dollarini tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Ushbu segmentda 2025–2029-yillar oraligʻida yillik oʻsish surʼati 1,92 foiz atrofida boʻlishi kutilmoqda. Shu bilan birga, 2025-yilda meva bozorida eksport hajmi 100,1 milliard AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda (1-jadval).

1 "Ўзбекистон — 2030" Стратегияси, 55-мақсад.
2 "Grand View Research" журнали нашри

1-jadval. 2024-yildagi yirik meva-sabzavot eksport qilgan davlatlar.

| Bozor | Jami qiymat (AQSh dollarda) |
|---|---|
| Kanada | $5.65 Mlrd. |
| Mexiko | $2.31 Mlrd. |
| Yaponiya | $1.06 Mlrd. |
| Janubiy Koreya | $680.9 Mln. |
| Tayvan | $440.48 Mln. |
| Evropa Ittifoqi | $414.36 Mln. |
| Avstraliya | $217.98 Mln. |
| Xitoy | $205.44 Mln. |
| Filippin | $176.76 Mln. |
| Gong Kong | $176.46 Mln. |

*Manba:* "Import Globals" axborot nashri.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) 2050-yilga kelib global oziq-ovqatga bo'lgan talab 60% -100% gacha o'sishini kutmoqda.

Meva-sabzavot bozori aylanmasi 2024-yildagi 231.6 mlrd. Dollardan 2034-yildagi 385.94 mlrd dollarga yetishi kutilmoqda (1-rasm).




1-rasm. 2024-2034-yillardagi jahon meva-sabzavot bozori aylanmasi.

2025-yilda yangi sabzavotlar bozoridagi daromad 875,19 milliard AQSh dollarini tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Shu bilan birga, ushbu segmentda 2025–2030-yillar oralig'ida yillik o'rtacha o'sish sur'ati (CAGR) 6,68 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Global miqyosda eng yuqori daromad Xitoy hissasiga to'g'ri kelib, 2025-yilda mamlakatda 107 milliard AQSh dollari miqdorida daromad olinadi. Aholi soniga nisbatan esa har bir kishi boshiga 111,57 AQSh dollari miqdorida daromad to'g'ri kelishi kutilmoqda.

Organik qishloq xo'jaligi bo'yicha yetakchi ilmiy muassasa — Organik qishloq xo'jaligi ilmiy tadqiqot instituti tomonidan 2021-yilda e'lon qilingan "Organik qishloq xo'jaligi dunyosi" nomli statistik va tahliliy to'plamga ko'ra, 2019-yilda jahon bo'yicha jami 72,3 million gektar yer maydonida organik mahsulotlar yetishtirilgan. Bu maydonning:

49,6 foizi yoki 35,9 million gektari Okeaniya,
22,9 foizi yoki 16,5 million gektari Yevropa,
11,5 foizi yoki 8,3 million gektari Lotin Amerikasi,
8,2 foizi yoki 5,9 million gektari Osiyo,
5,0 foizi yoki 3,6 million gektari Shimoliy Amerika,
2,8 foizi yoki 2,0 million gektari esa Afrika qit'asi hissasiga to'g'ri kelgan.

Yevropa yangi meva va sabzavotlar uchun eng rivojlangan, yirik va xilma-xil import bozorlaridan biri bo'lib, dunyodagi eng yirik 10 ta import qiluvchi davlatdan 7 tasi aynan ushbu hududda joylashgan. Qisqa muddatli talab va narxlar har doim o'zgarib turganiga qaramasdan, umumiy talab nisbatan barqaror va savdo hajmi katta bo'lib qolmoqda. Yevropada 530 milliondan ortiq iste'molchi mavjud va har yili o'rtacha 55 million tonna yangi

meva-sabzavot import qilinadi. Bu esa global oʻrtacha yillik savdo hajmining qariyb 40 foiziga teng.

Rivojlanayotgan mamlakatlar importini ragʻbatlantirish markazi (CBI)ning 2024-yilgi nashrida aynan yangi uzilgan meva va sabzavotlarni import qiluvchi hududlar chuqur tahlil qilingan. Unga koʻra, Yevropa bozori nafaqat hajmi, balki sifat standartlari, isteʼmolchilarning didi va barqaror yetkazib berish zanjirlariga boʻlgan talab nuqtayi nazaridan ham eng istiqbolli va raqobatbardosh segmentlardan biri sifatida koʻrilmoqda (2-jadval).[3]

2-jadval. Asosiy hoʻl meva va sabzavot import qiluvchi hududlarning foiz koʻrinishadagi ulushi (2021-yil uchun).

| Region | Foiz |
|---|---|
| Gʻarbiy Yevropa | 21 |
| Janubiy Yevropa | 8 |
| Shimoliy Yevropa | 6 |
| Sharqiy Yevropa | 6 |
| Shimoliy Amerika | 19 |
| Sharqiy Osiyo | 15 |
| Boshqa hududlar | 25 |

Dunyo boʻyicha organik mahsulotlarga boʻlgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Garchi organik mahsulotlar narxi anʼanaviy mahsulotlarga nisbatan yuqori boʻlsa-da, organik qishloq xoʻjaligi nafaqat AQShda, balki butun dunyo boʻylab muqobil dehqonchilikning eng ommalashgan shakliga aylangan. Xususan, Finlyandiya, Avstriya va Germaniya kabi Yevropa davlatlarida hukumatlar yer maydonlarining kamida 20 foizini organik dehqonchilikka ajratishga qaratilgan davlat siyosatlari va rejalarni joriy etmoqda.

Organik dehqonchilikka bosqichma-bosqich oʻtilayotgani, asosan, isteʼmolchilar tomonidan pestitsidlar va kimyoviy oʻgʻitlarning sogʻliq uchun salbiy taʼsiri borasidagi xavotirlar bilan izohlanadi. Aholi orasida ekologik toza, xavfsiz va sogʻlom mahsulotlarga talab ortib borayotgani ushbu tendensiyani kuchaytirmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, organik sertifikatlashtirish jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. Bu mahsulotlarning ekologik tozaligi va sifatini tasdiqlovchi muhim mexanizm boʻlib, ishlab chiqarishdan tortib to yakuniy isteʼmolchigacha boʻlgan butun zanjirda qatʼiy xalqaro standartlarga rioya etilishini talab qiladi. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarda sintetik pestitsidlar, kimyoviy oʻgʻitlar va genetik modifikasiyalangan organizmlar (GMO) ishlatilmasligi qatʼiyan nazorat qilinadi.

Bugungi kunda Oʻzbekistonda yetishtirilayotgan 34 ta mahsulot xalqaro "Organic" sertifikati bilan tasdiqlangan. Sertifikatlangan mahsulotlar orasida qora sedana, turli qishloq xoʻjaligi ekinlari va boshqa koʻplab mahsulotlar mavjud.[4]

Organik sertifikat olish uchun ishlab chiqarish jarayonida ekologik usullardan foydalanish talab etiladi. Bunda kimyoviy vositalar va pestitsidlardan butunlay voz kechish, mahsulot namunalarini vakolatli laboratoriyalarga topshirish, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonini xalqaro meʼzonlar asosida auditdan oʻtkazish zarur.[5]

Koʻp yillik ekinlar uchun oʻtish davri odatda 36 oyni tashkil etadi. Ushbu davr mobaynida mahsulotlar toʻliq organik maqomiga ega boʻlmaydi, biroq ular "organik qishloq xoʻjaligiga oʻtishdagi mahsulot" sifatida bozorga chiqarilishi mumkin. Bu esa ishlab chiqaruvchilarga oʻtish davrida iqtisodiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida taʼkidlash joizki, organik mahsulotlarga boʻlgan global talabning keskin ortib borayotgani ularning ekologik tozaligi, inson salomatligiga xavfsizligi va sogʻlom turmush tarziga mosligi bilan bevosita bogʻliqdir. Mazkur sharoitda organik sertifikatlashtirish mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini tasdiqlovchi muhim vosita boʻlib, u eksport imkoniyatlarini kengaytirish, yangi bozor segmentlariga kirish va xalqaro ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

Oʻzbekistonda bugungi kunda 34 turdagi mahsulot xalqaro "Organic" sertifikatiga ega. Shuningdek, 2030-yilgacha organik ekinlar ekiladigan yer maydonini 100 ming gektarga yetkazish rejalashtirilgan. Bu esa mamlakatning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga, xususan GSP+ tizimi kabi xalqaro imtiyozli savdo mexanizmlaridan samarali foydalanishga keng yoʻl ochadi.

Shunday qilib, organik sertifikatlashtirish nafaqat sifat kafolati, balki eksportni ragʻbatlantirishda muhim strategik vosita hisoblanadi. Jahon bozorida organik mahsulotlarga boʻlgan ortib borayotgan talabni hisobga

3 UNComtrade (August 2024)
4 https://uza.uz/oz/posts.
5 https://www.scribd.com/document/722836207/GIZ-Organic-Uzbekistan

olgan holda, O'zbekiston ularni xalqaro standartlarga mos tarzda sertifikatlashtirish hamda eksportga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini takomillashtirish orqali o'z organik mahsulotlarini global bozorlarda muvaffaqiyatli ilgari surishi va raqobatbardoshligini mustahkamlashi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. M.E. Porter. Competitive Advantage. – N.Y.: Free Press, 1985. – 615 p.
2. Philip Kotler, Kevin Lane Keller. Marketing Management. – Harlow: Pearson Education Limited, 2016. – 792 p.
3. Nicholas Lampkin. Organic Farming. – Wallingford: CABI Publishing, 1990. – 701 p.
4. Helga Willer, Julia Lernoud (Eds.). The World of Organic Agriculture: Statistics and Emerging Trends 2020. – Bonn: FiBL & IFOAM, 2020. – 336 p.
5. Johan Swinnen, Liesbet Knops. Land, Labour and Capital Markets in European Agriculture. – London: CEPS, 2013. – 423 p.
6. FAO-озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти интернет нашрлари, https://www.fao.org/home/en.
7. "Grand View Research" журнали нашри, https://www.grandviewresearch.com.
8. "Import Globals" ахборот манбаси нашри, https://www.importglobals.com/about-us.php.
9. "UNComtrade" нашри (Август 2024), https://www.cbi.eu/market-information/fresh-fruit-vegetables/what-demand
10. UzA Ахборот манбаси, https://uza.uz/oz/posts.
11. Гемания ҳамкорлик ташкилоти-GIZ нашрлари. https://www.scribd.com/document/722836207/GIZ-Organic-Uzbekistan

# YASHIL

**IQTISODIYOT&TARAQQIYOT**

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 4**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz